



ADVOKATURA INSTITUTIGA OID KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY NORMALAR VA MILLIY QONUNCHILIK

**Isroilov Ikromjon
Odilovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistranti
ikromjonodilovich1982@gmail.com

Аннотация

Mazkur maqola “Advokatura institutiga oid konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va milliy qonunchilik” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan advokatlik faoliyatining huquqiy kafolatlarini tahlil etadi. Advokatlik faoliyati davlat tomonidan ta‘minlanadigan asosiy huquq va erkinliklardan biri sifatida, adolatli sudlov va fuqaroning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada, avvalo, O‘zbekiston Konstitutsiyasining 141- va 142- moddalaridagi advokatlik faoliyatiga oid normativ- huquqiy asoslar va shuningdek, sudning mustaqilligi, advokatlar huquqlarini himoya qilish kabi kafolatlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, advokatning erkin va mustaqil faoliyat yuritishi, uning mijoz manfaatlarini himoya qilishdagi kafolatlari, advokatlik sirining daxlsizligi va davlat tomonidan ta‘minlanadigan kafolatlar tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy tamoyillarga muvofiq, advokatning huquqiy va ijtimoiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zaruriy kafolatlar muhim ahamiyatga ega ekanligi batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, advokatura, advokatlik byurosi, kafolatlar tahlili, milliy qonunchilik, adolatli sudlov.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ НОРМЫ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО О ЮРИДИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ

Аннотация: Данная статья посвящена теме «Конституционно-правовые нормы и национальное законодательство об институте адвокатуры» и анализируются правовые гарантии адвокатской деятельности, определенные в Конституции Республики Узбекистан. Адвокатура, как одно из основных прав и свобод, предоставляемых государством, играет важную роль в обеспечении справедливого судебного разбирательства и защите прав граждан. В статье, прежде всего, рассматриваются нормативно-правовые основы адвокатуры адвоката в статьях 141 и 142 Конституции Узбекистана, а также такие гарантии, как независимость суда и защита прав адвокатов. Также в статье анализируется свободная и независимая деятельность адвоката, его гарантии в защите интересов клиента, неприкосновенность адвокатской тайны и гарантии, предоставляемые государством. В соответствии с конституционными принципами подробно поясняется, что необходимые гарантии имеют важное

значение для эффективного осуществления юридической и общественной деятельности адвоката.

Ключевые слова: Конституция, адвокатура, юридическая фирма, анализ гарантий, национальное законодательство, справедливое судебное разбирательство.

KONSTITUTIONNO-PRAVOVYE NORMY AND NATSIONALNOE ZAKONODATELSTVO O YURIDICHESKOM INSTITUTE

Abstract: This article is devoted to the topic “Constitutional and legal norms and national legislation on the institution of advocacy” and analyzes the legal guarantees of advocacy activities defined in Constitution of the Republic of Uzbekistan. Advocacy, as one of the fundamental rights and freedoms granted by the state, plays an important role in ensuring a fair trial and protecting the rights of citizens. The article primarily examines the legal framework for advocacy in Articles 141 and 142 of the Constitution of Uzbekistan, as well as such guarantees as judicial independence and protection of the rights of lawyers. The article also analyzes the free and independent activity of a lawyer, his guarantees in protecting the interests of the client, the inviolability of attorney-client privilege and guarantees provided by the state. In accordance with constitutional principles, it is explained in detail that the necessary guarantees are important for the effective implementation of the legal and social activities of a lawyer.

Key words: Constitution, advocacy, law firm, analysis of guarantees, national legislation, fair trial.

KIRISH

Har bir mamlakatning taraqqiy etishi inson huquqlarining mustahkam himoyasiga bevosita bog‘liq. Huquqiy davlatda ushbu vazifani kuchli, himoyalangan advokatura amalga oshiradi. Advokatlik faoliyati har qanday demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi advokatura institutining mustahkam huquqiy asoslarini belgilab, uning qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplari asosida faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. Ushbu so‘zlarning isbotini 2023-yil 30-aprel kuni referendum asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida advokaturaning mavqeyi va nufuzini tubdan o‘zgartiruvchi normalar belgilandi. Konstitutsiyaga “Advokatura” nomli XXIV alohida bob kiritildi. Ushbu bobda advokaturaning mazmuni, faoliyat prinsiplari bilan birga, advokatning kasbiy kafolatlari qat’iy mustahkamlandi. To‘g‘ri, konstitutsiyadagi advokatura institutiga oid normalar tahlili uning huquqiy maqomiga oid barcha savollarga to‘liq javob bermaydi. Lekin konstitutsiya davlat hokimiyati va advokatura o‘rtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi bazaviy yondashuvni aniqlab beradi.

Har qanday kasb yoki lavozim egalari kabi, advokatlar ham o‘z faoliyatini normativ-huquqiy hujjatlar doirasida amalga oshiradilar. Masalan, o‘qituvchilar “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun asosida faoliyat yuritsalar, sudyalalar o‘z ishlarini “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun va boshqa huquqiy normalar asosida olib boradilar. Mazkur

huquqiy hujjatlar nafaqat ularning faoliyatini tartibga soladi, balki kasbiy vazifalarini to‘siqsiz amalga oshirish uchun zarur kafolatlarni ham belgilaydi. Shu o‘rinda, **kafolat** – bu ma’lum bir sohada huquq va majburiyatlarning to‘liq va to‘sqinliksiz bajarilishini ta’minlaydigan mexanizmdir. Darhaqiqat, N.D.Eriashvili va V.Y.Kositsinlarning fikricha, advokatlar o‘zlariga ishonch bildirilgan shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi kasb egalaridir¹. “Advokatura to‘g‘risida”²gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida advokatlik faoliyati jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, adolatli sudlovga erishishni ta’minlash uchun ko‘rsatiladigan malakali yuridik yordam sifatida e’tirof etilgan. Konstitutsiyaning 141- va 142-moddalari advokatlik faoliyatining huquqiy kafolatlarini aniq belgilab, advokatning kasbiy mustaqilligini, himoya qilinayotgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash va advokat sha’ni hamda qadr-qimmatini himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni kafolatlaydi. Ushbu normalar fuqarolarning adolatli sudlovga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarishda muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “advokat” so‘zi 4 ta, “advokatura” so‘zi esa 3 ta, “yuridik yordam” jumlasida 3 ta huquqiy normada o‘z aksini topgan. Xususan, 29-moddada advokatning jinoyat protsessidagi ishtirokiga oid norma keltirilgan bo‘lib, uning yordamidan har kim foydalanish huquqiga egaligi mustahkamlangan. Jumladan quyidagicha mustahkamlangan. “Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to‘g‘risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so‘roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga ega. Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalashni va odil sudlovdan foydalanishni ta’minlaydi, ularga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi”³. Aytish kerakki, bosh

¹ Инагамова М.М. Сифатли таълим тизимини ривожлантиришнинг баъзи стратегик асослари //Республикаси ИИБ Малака ошириш институти ахборотномаси. Т.– 2023. № 3. 63-70 б.

² O‘zbekiston Respublikasining Advokatura to‘g‘risida // qonun 27/12/1996 yil 349-I-son O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 48-modda; 2001-y., 1-2-son, 23- modda; 2003-y., 5-son, 67-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 37-38-son, 280-modda; 2008-y., 52-son, 514-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son; 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 10.08.2023-y., 03/23/862/0578-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son)

³ Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ikkinchi bo‘lim. inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar 29-modda // <https://lex.uz/docs/-6445145>

qomusimizda inson huquqlari kafolatlariga oid normalar ham 3 barobar 36 ko'paytirildi.

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining beshinchi bo'lim - Davlat hokimiyatining tashkil etilishida Advokatura deb nomlangan XXIV bob 141-moddasi normalarini tahlil etadigan bo'lsak, unda ham bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar Palatasi va uning viloyat, tuman (shahar) hududiy boshqarmalari faoliyatini qaytatdan tashkil etish hamda advokatlarni samarali faoliyat ko'rsatishlarini konstitutsiyaviy kafolatlanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu moddaning birinchi normasiga e'tibor qaratsak, **“Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi”**, deb belgilangan. Bu qoida esa, “Advokatura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining **5-modda** (Advokatlik faoliyatining turlari)si bilan quyidagicha mustahkamlab qo'yilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish maqsadida advokat:

Birinchidan, huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonunchilik yuzasidan og'zaki va yozma ma'lumotnomalar beradi⁴;

Ikkinchidan, huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzadi;

Uchinchidan, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlari hamda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshiradi⁵;

To'rtinchidan, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sud himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etadi⁶;

Beshinchidan, tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatadi;

Oltinchidan, hakamlilik sudida va xalqaro tijorat arbitrajida (sudida) vakillikni amalga oshiradi. Advokat qonunchilikda man etilmagan boshqa turdagi yuridik yordam ham ko'rsatishi mumkin⁷.

Bosh Qomusimizning 141-moddasi bilan belgilangan “Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi”. Deyilgan normasi ham “Advokatura to'g'risida”gi Qonuni bilan, yani, Advokatura o'z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida amalga oshiradi. Belgilangan tartibda litsenziya olgan shaxs advokatlik faoliyatini o'z advokatlik byurosini ochib, yakka tartibda amalga oshirishga yoxud boshqa advokatlar (shariklar) bilan advokatlik firmasini yoki a'zolikka asoslangan advokatlar hay'atini tuzishga yoxud faoliyat ko'rsatayotgan shunday advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishga yoki yuridik maslahatxonada ishlagan holda advokatlik faoliyatini amalga oshirishga haqli. Advokat o'z faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzilmasida amalga

⁴ 5-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

⁵ 5-moddaning birinchi qismi to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli [Qonuni](#) tahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son

⁶ 5-moddaning birinchi qismi beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli [Qonuni](#) tahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son)

⁷ 5-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli [Qonuniga](#) asosan yettinchi xatboshi bilan to'ldirilgan - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son)

oshirishga haqli⁸. Shu bilan birga “Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi” - degan jumlar ham muhokama etilayotgan Qonunning 4-moddasi 6-, 8-qismlarida shuningdek, Advokatlik byurosi deb nomlangan 4¹-moddasi, 4²-modda Advokatlik firmasi, 4³-modda Advokatlar hay’ati hamda 4⁴-moddasi yuridik maslahatxona – deb nomlangan normalarida belgilab qo’yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 142-moddasi bilan mustahkamlangan Advokatning kasbiy vazifalari yuzasidan belgilangan quyidagi normalar ham adolatli jamiyat qurishning eng muhim kafolati hisoblanadi.

“Advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta‘minlanadi. Advokat, uning sha‘ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi”.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2018-yil 11-oktabrdagi 497-sonli [Qonuni](#) bilan⁹ “Advokatning kasbga oid huquqlari, sha‘ni va qadr-qimmati qonun bilan qo‘riqlanadi.

Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita yoki bilvosita aralashish, ular o‘z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma‘lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslaridan va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma‘lumotlarni talab qilish taqiqlanadi.

Advokat o‘z kasbiy vazifalarini bajarayotganida unga biror-bir shaklda ta‘sir o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokat himoyachilik yoki vakillik vazifasini bajarayotganda o‘ziga ma‘lum bo‘lib qolgan tafsilotlar yuzasidan guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas.

Advokat kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan qo‘lga kiritgan advokatlik dalillari (ashyolari), hujjatlari undan olib qo‘yilishi yoki ko‘zdan kechirilishi mumkin emas, shuningdek uning o‘zi yuridik yordam ko‘rsatayotgan shaxslar bilan uchrashish huquqi cheklanishi mumkin emas.

Advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtai nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas.

Advokat qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatayotganligi munosabati bilan uni jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikni qo‘llash bilan qo‘rqitish mumkin emas.

Advokatga nisbatan jinoiy ish O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Shuningdek, Sudning advokatni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish to‘g‘risidagi ayblovlari hukmi

⁸ 4-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-fevraldagi O‘RQ-749-sonli [Qonuni](#) tahririda - Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son)

⁹ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son

qonuniy kuchga kirgan taqdirda, sudya bir sutka ichida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligini va Advokatlar palatasini yozma shaklda xabardor qiladi¹⁰.

Advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta‘minlanishi esa, “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan kafolatlangan¹¹.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, O‘zbekiston xalqining bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashi bilan yangilangan Konstitutsiyasi mamlakat huquqiy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Islohotlarning e‘tiborli jihatlaridan biri – advokatura institutiga maxsus e‘tibor qaratilgani bo‘ldi, u birinchi marotaba Konstitutsiyaga mustaqil bob sifatida kiritildi. Bu o‘zgarish advokatura institutining davlat va jamiyat hayotidagi muhim o‘rnini yanada mustahkamlash, advokatlarning huquq va faoliyat kafolatlarini yanada kuchaytirish, ularning mustaqilligini ta‘minlashda asosiy poydevor yaratdi. Advokatura nafaqat huquqiy tizimning ajralmas qismi, balki demokratik tamoyillarni himoya qiluvchi mustaqil institut sifatida Konstitutsiyada o‘z aksini topdi.

Respublikada adolatli sudlovga erishish, fuqarolar huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hamda davlatning huquqiy tizimini ochiqqligini ta‘minlash borasidagi intilishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu esa mamlakat huquqiy tizimini yanada yuqori darajaga ko‘tarish yo‘lida muhim tarixiy yutuq bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Инагамова М.М. Сифатли таълим тизимини ривожлантиришнинг баъзи стратегик асослари //Республикаси ИИБ Малака ошириш институти ахборотномаси. Т.– 2023. № 3. 63-70 б.

2. O‘zbekiston Respublikasining Advokatura to‘g‘risida // qonun 27/12/1996 yil 349-I-son O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 48-moddasi; 2001-y., 1-2-son, 23- modda; 2003-y., 5-son, 67-moddasi; 2004-y., 1-2-son, 18-moddasi; O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 37-38-son, 280-moddasi; 2008-y., 52-son, 514-moddasi; 2009-y., 39-son, 423-moddasi; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son; 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 10.08.2023-y., 03/23/862/0578-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son)

3. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ikkinchi bo‘lim. inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar 29-moddasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O‘RQ-497-sonli [Qonuniga](https://lex.uz/docs/-54503#-55655) asosan oltinchi qism bilan to‘ldirilgan - Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 10-moddasi

¹¹ “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 6-moddasi <https://lex.uz/ru/docs/-54503#-55655>

4. 5-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
5. 5-moddaning birinchi qismi to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli [Qonuni](#) tahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son
6. 5-moddaning birinchi qismi beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son)
7. 5-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli [Qonuniga](#) asosan yettinchi xatboshi bilan to'ldirilgan - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son)
8. 4-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-fevraldagi O'RQ-749-sonli [Qonuni](#) tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son)
9. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son
10. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O'RQ-497-sonli [Qonuniga](#) asosan oltinchi qism bilan to'ldirilgan - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2018-y., 03/18/497/2044-son “Advokatura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 10-modda
11. “Advokatura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 6-modda <https://lex.uz/ru/docs/-54503#-55655>